

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
Rektoir D.Sh.Xodjayeva
29-avgust 2025-yil

**AMALIY TILSHUNOSLIK
FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	70111401 – O‘zbek tili va adabiyoti

Fan/modul kodi AT1205		O‘quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Amaliy tilshunoslik		60	90	150
2.	I. Fanning qisqacha mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad – amaliy tilshunoslik lingvistikaning bir yo‘nalishi, u tilshunoslik nazariy natijalarining amaliyqo‘llanilishiga qaratilgan. Shuningdek, tilshunoslikning boshqa fanlar bilan kesishgan nuqtalarini – tadbiqiy yo‘nalishlarni ham o‘rganadi. Bundan tashqari tilning ijtimoiy muammolarini aniqlash, tadqiq qilish bilan shug‘ullanadigan va yechimlarni taklif qiladigan fan sohasi. “Amaliy tilshunoslik” moduli tilshunoslikning amaliy masalarini yoritishga qaratilgan. Modulning maqsadi lingvistikaning boshqa fanlar bilan munosabatini o‘rganish, ijtimoiy-iqtisodiy talablarga javob beruvchi yangi yo‘nalishlarining predmeti va ob’ektini tavsiflashdan iborat. – Fanning vazifasi - Magistrantlarning umumlingvistik bilimini amaliy jihatdan mustahkamlash; – Tilning amaliy qiymatini, til-lison-nutq munosabatini yoritish; – Til birliklari tavsifi va tasnifidagi yondashuvlarni tahlil qilish; – Til birliklarini o‘zaro bog‘liqlikda, tizim sifatidao‘rganish; – Tilning mantiqiy, psixik tabiatini izohlash, ijtimoiy-iqtisodiy, fiziologik, biologik jarayon sifatidagi murakkab strukturasini tahlil qilish; – Yangi amaliy va metodologik materiallar bilan tanishtirish; – Lisoniy tahlil metodikasi va metodologiyasi bilan qurollantirish – amaliy yo‘nalishlarda ilmiy-metodik-amaliy faoliyat yuritish ko‘nikmalarini berishdan iborat. - kasbiy faoliyat olib borish maqsadida zamonaviy terminologik manbalardan unumli foydalanish; - leksikografiya va terminologiya sohalarida voqelanayotgan yangi tendensiyalarni tushunish; - zamonaviy terminologiyada kechayotgan jarayonlarni farqlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak; - yangi xorijiy va milliy adabiyotlar asosida yangi terminologiyalarni o‘zlashtirish;				

- mazkur yo‘nalish doirasida talabalarning mustaqil amaliyfaoliyatini tashkil etish, nazariy ma’lumotlarni umumlashtirish, fanining istiqboli, dolzarb masalalariga doir fikrlar bildirish va tadqiqot olib borish **malakalarini egallashi lozim.**

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

2.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: Tilshunoslikda zaruriyat va an’ana. Tadqiqotchining dunyoqarashi, muammolarni belgilashi va ularning yechimiga munosabati, tanlangan tadqiq metodologiyasi va metodikasi masalalari umumiy ilmiy tafakkur darajasi bilan bog‘liqligi. An’anaviy ilmiy tafakkurning cheklanganligi, dogmatikligi, konservativligi,. Ilmiy tafakkurning an’anaviylikdan xoli ekanligi davr taqozo qilayotgan yangi tarixiy zaruratni belgilashi, fanning dolzarb vazifalariga mos zamonaviy metodologiya, metodlar va tadqiq metodikasini tanlash yoki ishlab chiqishi kabilarda ko‘rinishi.

2-mavzu: Tilshunoslikning samarasi muammo sifatida. Har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydigan ustuvor sohalarida yechimini kutayotgan muammolar asosida yaratilishi. Har bir soha bu muammolar tizimida o‘ziga tegishli masalalarni, undan kelib chiqadigan maqsad va vazifalarini aniqlab, muammoning yechimiga olib keladigan samarador va qulay metodologik asoslarni tanlashi, tadqiq usullarini ajratib olishi. O‘rta davr o‘zbek tilshunosligida davr ehtiyojlarining aks etishi, yangi davr o‘zbek amaliy tilshunosligi vazifalari.

3-mavzu: O‘zbek tilshunosligida metodologik almashinuv. Fanlarning taraqqiyot an’analarni ko‘rsatish. An’anaviy tilshunoslik uchun formal mantiq tamoyillari, uning uchinchisi istisno qonuni asosiy metodologik asos ekanligi. O‘zbek substansial tilshunosligi maxsus abstrakt bilish metodologiyasi – dialektik mantiq tadqiq tamoyillari asosida amalga oshirilishi. O‘zbek amaliy tilshunosligida lisoniy ziddiyatlarni tadqiq qilish, ularni bog‘lovchi, ziddiyat nuqtalariga e’tibor qaratish muhim ekanligi.

4-mavzu: Tilda imkoniyat va voqelik mushtarakligi. Hozirgi davrda o‘zbek tilshunosligi fanidan aniqlangan lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishini tekshirish. Yangi asr fani zimmasiga yuklatilayotgan bu ijtimoiy buyurtma tilni yangi – substansial-pragmatik tamoyillar asosida o‘rganish asosida amalga oshirilishi. Pragmatika so‘zi yunoncha pragma, pragmatos so‘zidan olingan va “ish”, “harakat” ma’nolarini bildirishi, tilshunoslikda til birliklarining qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganishni anglatishi.

5-mavzu: O‘zbek amaliy tilshunosligi istiqbollari. Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida globallashtirish jarayoni jahonda tilshunoslikka, xususan, til ta’limiga yangi vazifalar qo‘yayotganligi. Tildan amaliy

foydalanish ustuvorligini fanning ham, ta'limning ham asosiy vazifasiga aylantirganligi. Dunyo fanida tilning ichki qurilishini tavsiflaydigan nazariyadan til va shaxs mushtarakligi masalasi bilan shug'ullanadigan amaliy yo'nalishlariga o'tish rivojlanayotligi.

6-mavzu: O'zbek tilining milliy korpusini yaratish – dolzarb vazifa. Hozirda kompyuter tarjiması, tahriri, tahlili, elektron lug'atlar va tezaurus (til xazinası) lar kabi zamonaviy axborot texnologiyalari benihoya imkoniyatlar eshigini ochdi. Ayniqsa, zamonaviy elektron lug'atlar tuzish va undan foydalanish madaniyatini shakllantirish til imkoniyatini egallashda samaradorlidir. Til korpusi. Tilning mukammal korpuslarida til paydo bo'lgandan buyon hozirgi kungacha yaratilgan barcha yozma, og'zaki (audio, video) matnlar joylashtirilishi.

7-mavzu: O'zbek lingvodidaktikasining dolzarb vazifalari. XXI asrda tildan amaliy foydalanish samaradorligi fan va ta'limning ham asosiy muammosiga aylanib qolganligi. Til va shaxs munosabati muammosi antropotsentrik mohiyat kasb eta boshlaganligi. Leksik bilimlar natijasi. Grammatik bilimlar darajasi. Grammatik maksimum. Leksik minimum. O'zbek tilidan o'quv materialı murakkablik darajalari.

8-mavzu: Leksikografiya va lug'atchilik: nazariy va amaliy muammolar. Leksikografiya – tilning lug'at boyligini yig'ish va uni izohlash muammosi yechimiga ixtisoslashgan lingvistik soha ekanligi. Nazariy va amaliy leksikografiyalarning o'zaro farqlari. Mazkur terminlar o'zbek tilidagi lug'atshunoslik va lug'atchilik terminlarining muqobillari sifatida tushunish mumkinligi. Amaliy leksikografiya termini qator ijtimoiy vazifani bajarishi: til leksikasini tavsiflashi; adabiy til meyorlarini aniqlashi.

9-mavzu: O'quv lug'atchiligi – o'zbek amaliy tilshunosligi tarmog'i sifatida. Inson tafakkurini rivojlantirishda lug'atlarning ahamiyati. Til jamoasining ong mahsulini to'g'ri va ravon ifodalsh qobiliyati, ijodiy tafakkurini o'stirishda o'quv lug'atlari alohida ahamiyatga egaligi. Kelajak vorislarini ma'nan barkamol, mustaqil fikrlovchi, izlanuvchan, umuminsoniy qadriyatlarga munosib qilib tarbiyalash talabi o'quv lug'atlariga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirayotganligi. Shu asosda o'quv lug'atlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish tilshunoslikning dolzarb vazifasi ekanligi.

10-mavzu: Ideografik lug'atchilik – amaliy leksikografiya tarmog'i sifatida. Ideografik (tezaurus) lug'atlar tilning sistemaviy xarakterini ochib berishda eng muhim manba. So'zlarning paradigmatic (o'xshashlik), sintakmatik (qo'shnichilik) va iyerarxik (pog'onalilik) munosabatlari faqat ideografik (tezaurus) lug'atlar yordamida aks etishi. mazkur lug'atlar ma'lum bir yo'nalish bo'yicha barcha bilim va malakalarni o'zida to'ujassamlashtirganligi, avtomatik ishlov berishga xoslanganligi, kelajakda yaratiladigan mashina tili uchun muhim manba bo'ishi mumkinligi. Kelajakda oldimizda faqat bitta fan doirasidagina emas, balki o'zbek tilining yagona ideografik lug'atini tuzishdek ulkan vazifa turganligi.

11-mavzu: O‘zbek tilini matematik modellash – o‘zbek amaliy tilshunosligining dolzarb vazifasi. Ko‘p yillik tajriba va bilimlarni formal ko‘rinishda shakllantirish (modellash) orqali kompyuterda bilimlarni ifodalash usullarini ishlab chiqish, inson kabi “fikrlovchi” kompyuterdan turli maqsadlar yo‘lida samarali foydalanishni tashkil etish bugun fanoldida turgan eng dolzarb vazifa ekanligi. Amaliy va struktur lingvistika tomonidan yaratiladigan har bir konkret lingvistik model matematik lingvistika tomonidan maxsus qonun-qoidalar asosida lingvo-matematik model ko‘rinishida qayta shakllantirilishi. O‘zbek tilining ilmiy grammatikasi “inson-mashina” intellektual muloqot tizimiga mo‘ljallanganligi.

12-mavzu: Til va ma’naviyat mushtarakligi – o‘zbek amaliy tilshunosligi muammosi. Bugungi til va ma’naviyat muammosini o‘rganadigan alohida soha – lingvoma’naviyatshunoslik yo‘nalishi paydo bo‘lganligi. Lingvoma’naviyatshunoslik yo‘nalishining bosh maqsadi – yuksak ma’naviyatli shaxs tarbiyasi uchun xizmat qiladigan lingvistik ta’minotni vujudga keltirish ekanligi. “Ma’naviyat” umummilliy lisoniy tushunchasini umum tadqiq qilish natijasida yaratilishi.

13-mavzu: Tilni gender o‘rganish – o‘zbek amaliy tilshunosligi vazifasi sifatida. Tilshunoslikda ayol va erkak jinsiga taalluqli ifodalarda axloqiy, emotsional va intellektual sifatlar, yosh, tashqi ko‘rinish, tana a’zolari va kasallik nomlarni ishlatish bilan aloqador guruhlar mavjudligi. Erkak va ayol nutqining o‘xshash jihatlarini ifodalashda til birliklaridan baravar foydalanish, tovushlarni cho‘zib ifodalash, vulgarizmlardan foydalanish, fikrni noverbal ifodalashda kuzatilishi. Ifodalarda gender ma’no voqelanishida pragmatik omil imkoniyati kengligi, ularda shaxs va vaziyat omili yetakchilik qilishi.

14-mavzu: Matnni lingvokognitiv yondashishning amaliy muammolari. Bugungi kundamatn tilshunoslikning asosiy masalalaridan biri umumiy matn tuzish qonuniyatini tiklash. Xususiy matnni tashkil etuvchi qismlararo uzviylik va uzluksizlik, mazmuniy izchillik va butunlik, axboriy to‘liqlik va yakunlanganlik kabi tushunchalarni aniqlash. Bu unsurlarning muayyan matniy sistemadagi umumiy va xususiy vazifalarini aniqlashlash. Xabarining to‘liq yoki qisman takrorlanishi adresatning axborotni o‘zlashtirishi sifatiga zamin hozirlashi. Bu esa matnning barcha turlari, o‘ta rasmiy bo‘lgan qonun matnlarida ham o‘z ifodasini topishi.

15-mavzu: O‘zbek milliy terminologiyasining amaliy masalalari. Bugungi kunda milliy adabiy til va uning turli sathlari yo‘nalishlarini ilmiy tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilayotganligi. Milliy adabiy tilni alohida mental tizim sifatida o‘rganish o‘zbek tilshunosligining galdagi vazifasiga aylanganligi. Muayan bir sohaning hatto har bir xodimi termin semantikasi, qo‘llanilishi to‘g‘risida bosh qotiradigan, termin o‘zlashtirish muammosi bilan shug‘ullanadigan bo‘lib qolganligi. Terminosistemani tartiblash muammolari. Sohada leksikografik amaliyot. Kelgusidagi vazifalar.

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

Amaliy mashg'ulotlarda magistrantlar amaliy tilshunoslikning asosiy tushunchalari, kategoriyalari haqidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Amaliy mashg'ulotlari rejasi va adabiyotlar ro'yxati magistrantlarga taqdim qilinadi. Rejada ko'rsatilgan masalalarni darslik yoki o'quv qo'llanma hamda ilmiy adabiyotlarga tayanib o'rganish tavsiya qilinadi. Magistrantlar tilshunoslikning amaliy masalalaridagi innovatsion yondashuvlarni tahlil qilishadi. Tavsiya etiladigan mavzular:

1. Tilshunoslikda ijtimoiy buyurtma.
2. Tilshunoslikning amaliy natijasi.
3. O'zbek tilshunosligida metodologik muammolar.
4. Til imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi tadqiqi.
5. O'zbek amaliy tilshunosligi: ijtimoiy buyurtma, muammolar va vazifalar.
6. O'zbek tilining milliy korpusini yaratish – amaliy tilshunoslik vazifasi
7. O'zbek lingvodidaktikasining bugungi vazifalari.
8. O'zbek izohli lug'atlari: nazariy va amaliy muammolar.
9. O'quv lug'atlari.
10. Ideografik lug'atchilik masalalari.
11. O'zbek tilini matematik modellashtirish
12. Lingvoma'naviyatshunoslik.
13. O'zbek gender tilshunosligi.
14. Matnni lingvokognitiv o'rganish muammolari.
15. O'zbek milliy terminologiyasining amaliy muammolari.

Kurs ishi

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Jahon fanida nazariyva amaliy yo'nalishlar.
2. Tilni amaliy o'rganishning nazariy asoslari.
3. Semiotika, til belgilar sistemasi ekanligi.
4. Psixolingvistik tadqiqotlar tarixi, tadriji va usullari.
5. O'zbek tili psixolingvistikasi.
6. Sud lingvistikasi
7. Lingvistik ekspertiza
8. Internet lingvistikasi
9. Internet muloqot janrlari va xususiyatlari: anonimlik va xavfsizlik.
10. Gender tilshunosligi

	11. Gender munosabatlarining o'zbeklar nutqida aks etishi. 12. Sun'iy tillar signal tizimlari sifatida 13. Kompyuter lingvistikasi 14. Matematik lingvistika. 15. O'zbekcha lingvistik ta'minot yaratish tajribalari. 16. Amaliy tilshunoslik axborot izlash vositasi sifatida 17. Modellash tirish amaliy va kompyuter lingvistikasining asosiy metodi sifatida 18. Til va til jarayonlarini modellash tirish usullari. 19. Leksikografiya amaliy tilshunoslikning muhim yo'nalishlardan biri sifatida 20. Lug'atlar tuzish nazariyasi va amaliyoti. 21. An'anaviy va mashina (kompyuter) leksikografiyasi. 22. Sotsiolingvistika 23. Antropotsentrik tilshunoslik 24. Pragmatik va kognitiv tilshunoslikning shakllanishi 25. Etnolingvistika 26. Ekolingvistika 27. Xorijiy tillarni o'rganishda ona tili asos sifatida 28. Atamashunoslik 29. Tarjimashunoslik 30. Lingvodidaktika Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3.	V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasi datalaba: • fanning obyekti, maqsadi, vazifalarini farqlay olishi kerak; • semasiologiyaning shakllanishi uning turlari va tarkibiy qismlari haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim; • Lisoniy ma'noni bilishi talab qilinadi; • Leksema sememasining ma'no turlari haqidagi bilimga ega bo'lishi kerak; • Leksik semantic munosabatlarni farqlay bilishi lozim; • So'zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi talab etiladi;
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaolkeys-stadilar; • seminarlar (mantiqiyfiklash, tezkorsavol-javoblar); • guruhlardaishlash; • taqdimotlarniqilish;

	• individualloyihalar; • jamoaboʻlibishlashvahimoyaqilishhuchunloyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni toʻla oʻzlashtirish, tahlil natijalarini toʻgʻri aks ettira olish, oʻrganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifava topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat boʻyicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. Neʼmatov H, Mengliyev B. Tilshunoslikning metodologik masalalari. – Toshkent, 2010. 2. Mengliyev B. Tilshunoslikning amaliy masalalari. – Toshkent, 2017. 3. Navoiy A. Lisonut tayr. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. 4. Neʼmatov H., Bozorov O. Til va nutq. - Toshkent:Oʻqituvchi, 1993. 5. Falsafa. Qomusiy lugʻat. – Toshkent:Sharq NMAK, 2004. 6. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent, 2007. 7. Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику. Учебное пособие. М., 2012. 8. Шилихина К.М. Основы прикладной лингвистики. Учебное пособие. – Воронеж, 2006. Qoʻshimcha adabiyotlar 1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi” toʻgʻrisidagi Farmoni (“Xalq soʻzi”, 2017-yil, 8-feval). 2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari” toʻgʻrisida (“Xalq soʻzi”, 2017-yil, 21-aprel) 3. Абдуазизов А., Шереметьева А. Общее языкознание. – Тошкент, 2004. 4. Nurmonov A. Strukturtilshunoslik: ildizlari va yoʻnalishlari. – Andijon, 2006. 5. Rahmatullaev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. –Toshkent, 2007. 6. Азимова И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психоллингвистик тадқиқи: Филол.фан. номз. ... дисс. – Тошкент: ЎЗМУ, 2008. -153 б. 6.БолотноваН.С. Лексическая структура художественного текста в ассоциативном аспекте. – Томск: Томский. гос. пед. ин-т. –1994. – 212 с. 7. БушуйТ., СафаровШ. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. -Тошкент: Фан, 2007. 8.Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент, 2008. Internet saytlari: 1. http://www.ziyo-net.uz

	2. http://www.kutubxona.uz 3. Этимологический словарь – Online Etymological Ductionary – http://www.etymonline.com/index.php?term=linguist 4. Герд, А. С. Предмет и основные направления прикладной лингвистики. – http://project.phil.spbu.ru/lib/data/ru/heard/prikling.html 5. Свободная энциклопедия языков программирования - http://progopedia.ru/ 6. The Association for Computational Linguistics http://www.aclweb.org/archive/misc/what.html 7. Daniel Chandler. Semiotics for beginners (раздел Introduction) – http://www.aber.ac.uk/media/Documents/S4B/sem01.html 8. WordNet® – http://wordnet.princeton.edu
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma’sul: N.Maxmudova – QDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD).
9.	Taqrizchilar: Sh.T.Akramov - QDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi, kafedra mudiri. A.Hasanov - QDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

